

SOTSILOGIYA. PSIXOLOGIYA
SOTSILOGY. PSYCHOLOGY

Ahmad Bahriyev

(Toshkent, O'zbekiston)
arbahriyev@mail.ru

**Ta'lim jarayonida milliy musiqiy
tasavvurlarni shakllantirishning
psixologik jihatlar**

Abstrakt

Milliy musiqa kuchli emotsional-psixologik ta'sir vositasiga ega. Uni idrok etish orqali adekvat tasavvurlar shakllanishida ijtimoiy-psixologik omillarning ahamiyati Markaziy Osiyo mutafakkirlari asarlarida alohida ta'kidlangan. Milliy musiqiy tasavvurlar bu – millat vakili, tinglovchi tomonidan idrok etilgan musiqa asarining shaxs ongida bevosita mazmunli badiiy axborotga aylanishidir.

Mazkur maqolada Markaziy Osiyo mutafakkirlarining musiqaning emotsional-psixologik ta'sir imkoniyatlari borasidagi ilmiy fikr va mulohazalaridan zamonaviy musiqa ta'limida foydalanish o'qitish samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi yoritilgan.

Kalit so'zlar: tasavvur, musiqiy tasavvur, milliy musiqiy tasavvur, tinglovchilik didi, katarsis.

Muallif haqida: *Bahriyev Ahmad Rahmatovich* – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston davlat konservatoriyasi.

Iqtibos uchun: Bahriyev, A. R. 2019. "Ta'lim jarayonida milliy musiqiy tasavvurlarni shakllantirishning psixologik jihatlar". *O'zbekiston: til va madaniyat* 4: 80—100.

Kirish

Musiqiy asarlarni tinglash orqali unda ifodalangan badiiy-estetik mazmunni to'laonli anglash shaxs ongida maqbul tasavvurlar shakllanishi uchun ijobiy hodisa hisoblanadi. Zero, musiqa kompozitsiyasi va musiqa ijrochiligi, ya'ni, amaliyotining natijasi – tinglash faoliyati bilan yakunlanadi. Musiqa yaratish, ijro etish va uni tinglash yaxlit jarayon bo'lib, yaratilgan musiqa

asarining muvaffaqiyati uning tinglovchi tomonidan e'tirof etilishiga bog'liqdir. Bu esa tinglovchi ongida shakllanadigan milliy musiqiy tasavvurlar (MMT) hajmi va ko'lami bilan o'lchanadi. Milliy musiqa asarlarini samarali tinglashni milliy musiqiy tasavvurlar sifatida baholash mumkin.

Musiqiy tasavvurlar shakllanishi ijtimoiy taraqqiyot tizimida obyektiv shart-sharoitlar va subyektiv omillar orqali amalga oshirilsa-da, ijtimoiy-psixologik mexanizmlar milliy musiqa asarlarining har bir alohida shaxs faoliyatida reallashishi, uning ichki motiviga aylanishi uchun zaruriy shart-sharoit va ma'naviy quvvat sifatida xizmat qiladi.

Tashqi muhitni tushunish, turli vaziyatlarda unga moslashish hamda munosib xulq-atvor va faoliyat me'yorlarini o'zida mujassamlay olish shaxsning muhim fazilatlaridan biridir. "Shaxsning atrof-borliq to'g'risidagi bilimlari uning shaxsiy tajribasi bilan bog'liq ravishda o'zida tasavvurlar tizimini tashkil etadi. U yoki bu ob'ekt yoki hodisa haqida bilimning mavjud emasligi tasavurning yo'q ekanligidan darak beradi. Shaxsgacha yetib kelayotgan muammolar va ular asosida hosil bo'ladigan bilimlar aniq yoki noaniq (to'g'ri yoki noto'g'ri), biror narsa vositasida shakllangan yoki bevositaligi uchun ham tasavvurlar ana shunday belgilar asosida turlarga bo'linadi. Tasavvur yuzaki yoki chuqur ma'noli, keng miqyosli yoki tor bo'lgani uchun ham ularning har bir shaxsda shakllanganligi darajasi haqida gapirish mumkin" [Каримова 1994, 152].

Shuning uchun inson jamiyatning ijtimoiy va madaniy yutuqlarini egallashi, e'zozlashi, ularni emotsional hamda intellektual jihatdan his qila olishi lozim. Bu esa unda ma'naviy qadriyatlar, jumladan, milliy musiqani adekvat idrok etish va tushunish imkoniyatini yaratish orqali tasavvurlar olamini kengaytiradi.

Mutafakkirlar musiqa haqida

Milliy musiqa kuchli emotsional-psixologik ta'sir vositasidir. Uni idrok etish orqali adekvat tasavvurlar shakllanishi Markaziy Osiyo mutafakkirlarining asarlarida alohida ta'kidlangan. Musiqiy tasavvur bu – tinglovchi tomonidan idrok etilgan musiqa asarining shaxs ongida bevosita mazmunli badiiy axborotga aylanishidir. Milliy musiqadagi (xalq musiqasi) o'ziga xos tarbiyaviy xususiyatlarning shaxs yoki guruh ongida aks etadigan ko'rgazmali obrazlari majmuasini milliy musiqiy tasavvurlar tarzida ta'riflash mumkin.

Markaziy Osiyolik olimlar Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Al-Kindiy, Faxriddin ar-Roziy, Mahmud ibn Ma'sud ash-Sheroziy,

Muhammad ibn Mahmud al-A'moliy, Zaynulobidin al-Husayniy, Najmiddin Kavkabiyy Buxoriy, Xoji Abduqodir Marog'iy, Abdulmo'min bin Yusuf al-Urmaviy, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Abdulhaq ad-Dehlaviy, Darvish Ali Changiy Buxoriy va boshqalar milliy musiqaning tarbiyaviy ahamiyati to'g'risida qimmatli fikrlar bayon etganlar.

Musiqa tinglash orqali unda ifodalangan badiiy mazmunni anglash, milliy musiqa yuzasidan tasavvurlar shakllanishining psixologik xususiyatlari Abu Nasr Forobiyning "Musiqaga doir katta kitob", "Musiqiy usullar haqida kitob", Abu Ali Ibn Sinoning "Donishnoma", "Musika ilmi haqida risola" va boshqa asarlarida, Faxriddin ar-Roziyning "Ilmlar xazinasini" qomusida, Safiuddin Urmaviyning "Davrlar kitobi", Al-Husayniyning "Musika ilmi va amaliyoti qonunlari", Najmiddin Kavkabiyy Buxoriyning "Musika haqida risola", Abdurahmon Jomiyning "Musika haqida risola", Abdulhaq ad-Dehlaviyning "Eshitish masalasi tadqiqoti" va boshqa ilmiy asarlarda tahlil qilingan.

Jumladan, "Forobiy ijrochilik va bastakorlik orqali tinglovchilarga hissiy ta'sir etishning shu qadar yuksak darajalariga erishganki, bu to'g'rida uning soz chalib, kuy ijro etib, odamlarni sarosimaga solganligi, goho jo'shqin kishilarni xomush ahvolga tushirib, ba'zan esa ziyraklarni uxlatib, shinavandalarni hayratda qoldirgani ma'lum" [Matëky60B 1983, 10]. Alloma kuy ijro etishda tinglovchi ehtiyojlaridan kelib chiqqani bois unga kuchli emotsional ta'sir eta olgan. U eshitish tajribasidan holi bo'lgan hodisalar musiqaga aloqasi yo'qligini qayd etgan, shu bois faqat eshitib idrok qilinadigan ohanglarni musiqa deb bilgan.

Abu Nasr Forobiy milliy musiqa cholg'u sozlarining psixologik ta'sir imkoniyatlari va tinglash orqali shaxsda shakllanib boradigan milliy musiqiy tasavvurlarga yuksak baho beradi hamda ularni qo'llash bo'yicha o'z fikrlarini bayon qiladi: "Janglarga mo'ljallangan cholg'u sozlari mavjud, ularning ovozi baland va keskin. Ziyofat va raqslar uchun, to'y va quvnoq yig'ilishlar uchun, muhabbat qo'shiqlari uchun ham maxsus cholg'ular bor. Ayrimlarining tovushi keskin va xazin bo'ladi: bir so'z bilan aytganda, ular shunchalik ko'p, shunchalik xilma-xilki, hammasini sanab o'tish qiyin" [Соломонова 1981, 11].

Forobiy mohir cholg'uchi sifatida ko'pgina (nay, qonun, ud, g'ijjak, tanbur) cholg'u sozlarida mukammal ijro eta olgan va ulardan kuchli hissiy ta'sir vositasi sifatida foydalangan. "Ray shahrida Sohib ibn Abbod huzurida biron soat bo'lgach, ziyofat boshlanadi. Shunda u

o'z sozini (g'ijjak) qo'liga olib, musiqasining birinchi qismini chaladi. Asar chalinganda, davradagilar xandon otib kulishadi. Ikkinchi qism ijro etilganda, musiqa ularni yig'lashga majbur qiladi, hamma shoda-shoda ko'z yosh to'kadi. Uchinchi qismi chalinganda esa ular cheksiz hayajonga tushishadi" [Проблемы музыкальной науки Узбекистана 1973, 132].

Ushbu voqea Forobiyning insonlar ruhiy olamini, ularda milliy musiqiy tasavvurlar shakllanishining me'yorlarini chuqur tushunuvchi psixolog, kuchli ijrochi va mohir sozanda bo'lganidan darak beradi. Musiqaning ulkan ijtimoiy-estetik ta'sir kuchini yaxshi anglagan alloma undan insonlar ma'naviyatini yuksaltirish maqsadida foydalanish lozimligini ta'kidlaydi.

Abu Ali ibn Sino ilmiy asarlarida musiqaning ruhiy-hissiy ta'siri orqali insonlarda milliy tasavvurlar shakllanishi masalasiga keng to'xtaladi. U o'zining musiqaga doir nazariy g'oyalarini tovushning fizik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda yaratsa-da, lekin musiqani faqat tajribaning o'zigagina bog'lab qo'ymaydi. Balki uni fan va ilmiy tafakkur yordamida rivojlantirishga da'vat etib, ijtimoiy-tarbiyaviy ahamiyatiga yuqori baho beradi.

Tarbiya masalalariga to'xtalib: "Bolaning mijozini kuchaytirmoq uchun unga ikki narsani qo'llamoq kerak. Biri bolani asta-sekin tebratish, ikkinchisi uni uxlatish uchun odat bo'lib qolgan musiqa va allalashdir. Shu ikkisini qabul qilish miqdoriga qarab bolaning tanasi bilan badantarbiyaga va ruhi bilan musiqaga nisbatan iste'dodi hosil qilinadi. Birinchisi – jismga, ikkinchisi esa – qalbga mansubdir", - deydi alloma [Раҳимов 1979, 94].

Ibn Sino musiqani, avvalo, insonlar o'rtasidagi aloqa vositasi deb tushunadi. Fikr va tuyg'ularni izhor etishda nutqni birlamchi, mutanosib kuylashni esa undan ham mukammalroq bosqich sifatida baholaydi: "Agar kuy nazm va mutanosiblik bilan bezalgan bo'lsa, u qalbga kuchliroq ta'sir qiladi", - deya e'tirof etadi alloma [Матёқубов 1983, 19].

U musiqa yordamida bolalardagi ruhiy hissiyotlarni shakllantirishning ahamiyatini ta'kidlab, "Tib qonunlari"da bolalikdan boshlab ularda musiqiy hissiyotlarni tarkib toptirish zarurligini uqtiradi. Ibn Sinoning musiqiy-nazariy merosi o'sha davrda yaratilgan musiqa ilmi tizimidagi eng mukammal talqinlardan iborat bo'lib, ushbu asarlarda milliy musiqiy ohanglarning tarbiyaviy ahamiyatiga, yo'naltiruvchi kuchiga yuksak baho berilgan.

Ta'kidlash lozimki, musiqa ilmida Ibn Sino asosiy e'tiborini tovushning fizik xususiyatlariga qaratib, Forobiy esa nazariyani

ko'proq tajriba va musiqani idrok etish qonuniyatlari bilan bog'laganini ko'rish mumkin.

XI asrda yozilgan noma'lum muallifning "Samodan xabar" nomli risolasida musiqaning psixologik va estetik-tarbiyaviy ahamiyatiga oid qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Jumladan, "Yoqimli ovoz yuksak ta'sir kuchiga ega bo'lib, uni eshitish bilan inson qalbi ichki alamlardan holi bo'ladi. Kishi har qanday qiyinchilikni, hatto ochlik, tashnalikni esidan chiqaradi. Musiqaning ta'sir kuchini shundan bilsa bo'ladi. Yig'lab turgan bola onaning allasini eshitib, tinchlanadi va uxlab qoladi", - deyiladi [Ражабов 1963, 101].

Asarda bolaga chaqaloqlik davridan boshlab milliy musiqiy ohanglarni singdirib borish lozimligi ta'kidlanadi.

Safiuddin al-Urmaviy musiqa ilmining Forobiy va Ibn Sinodan keyingi yirik namoyandasi hisoblanadi. U o'zining musiqaviy qarashlarida ratsionalistik g'oyalarni ilgari surgan. O'zining "Ehtirom" va "Davrlar kitobi" asarlarida musiqaning nazariy masalalarini tahlil qilib, idrok qonuniyatidan kelib chiqqan holda xulosalar bayon qiladi [Матёкёбов 1983, 22]. Jumladan, musiqiy tovushlar harakati va ularning o'zaro munosabatlari idrok qonuniyatlari nuqtai nazaridan baholanishi, musiqa tinglovchida ma'lum emotsional va kognitiv tasavvurlarni hosil qilishi lozim ekanligini uqtiradi.

"Qobusnoma" asarida Kaykovus musiqachilarning tinglovchilar bilan ijroviy munosabatlariga to'xtalib, quyidagilarni sanab o'tadi: "...agar hofiz bo'lsang, xushfe'l, quvnoq bo'l, hamma vaqt o'zingni toza tut, sendan yoqimli hid kelib tursin, shirinso'z bo'l, qo'pol so'z, qovog'i soliq bo'lmagin. Hamma vaqt og'ir yo'l (maqom) larni chalaverma va hamma vaqt yengil yo'llarni ham chalaverma, chunki yo'lni bir xilda chalmaslik kerak, negaki, odamlarning hammasi bir xilda emas, tabiatlari ham bir-biriga muvofiq emas, chunki xalq xilma-xildir" [Йўлдошева 1985, 21].

Asarda musiqa nazariyasi va amaliyoti, uning kuchli emotsional ta'sir vositasi sifatidagi ahamiyati, ijtimoiy munosabatlar tizimida musiqa amaliyotining muhim o'rni haqidagi qarashlar ifodalangan. Ayniqsa, tinglovchilarning qiziqishlari, turli asarlarga nisbatan munosabatlari masalasida to'xtalib, cholg'uchilar aynan tinglovchilar talab va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda asarlar ijro etishlari zarurligi uqtiriladi. Shundagina musiqada ifodalangan mazmunni anglash, u haqda to'laqonli tasavvurlarga erishish mumkinligi aytiladi

"Musiqa ilmining ustodlari, avvalo, podshohlar majlisi uchun xisravona dostonlar, so'ngra keksalar va o'qigan odamlarning

tabiatiga mos keladigan bir og'ir yo'l tuzganlar, so'ngra (ustodlar) ko'rsalarkim, xalqning hammasi qari va jiddiy kishilar emas. Shuning uchun yigitlarga moslab bir yo'l, so'ngra yengilroq vaznli she'rlar uchun yengil yo'llar tuzganlar, ularni hafif deb nomlashgan. Asosan, og'ir yo'llardan so'ng bu yengil yo'llarni chalganlar, bundan yoshlar ham, qarilar ham bahramand bo'lishsin. Yosh bolalar va yoqimli tabiatli kishilar uchun taronani ishlab chiqqanlar – "toki bu qavm ham bahra olsinlar, rohat qilsinlar, chunki hamma vaznlar orasida taronadan yoqimli vazn yo'qdir", - deyiladi [Йўлдошева 1985, 21].

"Qobusnoma"da, shuningdek, turli emotsional-psixologik holatlar - hijron, vasl, pand-nasihat, malomat, norozilik, rizolik, rad qilish, vafo, yovuzlik, xayr-saxovat, tuhfa berish va zavq-shavq to'g'risidagi g'azallarni bilish, har faslning o'ziga munosib g'azallarni o'qish – bahorda xazonga munosib, xazonda bahorga munosib, qishda yozga munosib va yozda qishga munosib g'azallarni o'qimaslikni maslahat beradi.

Faxriddin ar-Roziy "Ilmlar xazinasi" nomli qomusiy asarida musiqaning ilmiy-nazariy, amaliy va ijtimoiy-psixologik xususiyatlari yuzasidan ko'pgina ma'lumotlarni keltiradi. Muallif milliy musiqaning tinglovchiga kuchli ruhiy va botiniy ta'siri, musiqiy tovushlarning ohanglar orqali tinglovchida turli tasavvurlarni hosil qilishi haqida gapirib: "Musiqiy tovushlar quvnoq kayfiyatni hosil qilsa, past va baland tonlar (ton yunoncha *tonos* – kuchlanish, ta'kidlash) aniq balandlikka ega bo'lgan tovush mutanosibligidandir [Ақбаров 1997, 299]. Agar g'amginlik uyg'otsa, baland tovushlarning past tonlar bilan qo'shilishidandir. Qahr, g'azab va fikrni past tovushlar; sezgilar, emotsional harakatlarni baland tovushlar ifodalaydi", - deya tasvirlaydi [Проблемы музыкальной науки Узбекистана 1973, 153].

Musiqaning ijtimoiy-psixologik ta'sir xususiyatlari

Milliy musiqa ohanglarining emotsional ta'sirini psixologik tahlil qilish o'sha davrda musiqa nazariyasi va amaliyotiga katta e'tibor qaratilgani hamda undan samarali tarbiya vositasi sifatida foydalanilganidan dalolat beradi.

Olimlar musiqiy shakl va uslub haqidagi risolalarida (X-XIII asrlar) kuy va ashula yo'llarini "alhon" deb atashgan hamda emotsional va ijtimoiy-psixologik ta'sir xususiyatiga qarab uch turga bo'lishgan:

1. *Alhoni mulazza* – lazzatbaxsh musiqa. Bunday musiqa asarlari go'zallikni ifodalaydi, inson kayfiyatini ko'taruvchi

emotsional ta'sir kuchiga ega.

2. *Alhoni muxayyila* – xayoliy, tasviriy xususiyatga ega bo'lgan musiqa asarlari. Kishini xayolga cho'ndirib qo'yadigan va tasviriy kuchga ega bo'lgan kuy hamda ashulalar.

3. *Alhoni infoliyya* – g'amgin kuylar. Kishiga g'amgin kayfiyat bag'ishlaydigan, og'ir, mungli musiqa [Ражабов 1963, 107].

Asarlarni bu tariqa guruhlashda tinglovchilarning differensial xususiyatlari nazarda tutilgan. Abdurahmon Jomiy "Musiqa haqida risola" sida musiqaning ruhiy-hissiy ta'sirini, uning tinglovchilarda qayg'u yoki quvonch, tushkunlik yoki umid singari turli-tuman his-tuyg'ular hosil qila olishini ta'kidlaydi.

Aksincha, "Musiqadan lazzat topmaslik, inson ruhining huzurbaxsh kayfiyatga burkanmasligi, uning ruhiy olami jismoniy nafsoniyat darajasida qolib ketganligidan, ma'naviy barkamollik sari qadam tashlamaganidan darak beradi" [Саидов 2002, 97].

Abdurahmon Jomiy musiqiy ohanglarning emotsional-psixologik ta'siri orqali tinglovchida ma'lum milliy musiqiy tasavvurlar shakllanishi haqida so'z yuritib, ularni to'rt turga ajratadi:

- a) shijoat va jasurlik uyg'otuvchi ohanglar;
- b) xursandchilik va quvonch uyg'otuvchi ohanglar;
- c) qayg'u va mung uyg'otuvchi ohanglar;
- d) g'am va ma'yuslik aralashgan shodlik va zavq uyg'otuvchi ohanglar.

Ushbu tasnif orqali alloma tinglovchida musiqa tinglashda milliy musiqiy tasavvurlar shakllanishi jarayonini jadallashtiruvchi xususiyatlari borasida fikr bildiradi.

Alisher Navoiy o'zining she'riy asarlari musiqa ohanglari bilan ijro etilganda, kuchli hissiy ta'sir vositasiga aylanib, tinglovchining MMTlari shakllanishiga imkoniyat yaratishini, shu bois uning bu xususiyatlaridan tarbiyaviy maqsadlar uchun foydalanish maqsadga muvofiqligini ta'kidlaydi.

Alisher Navoiyning bastakorlik faoliyati haqida yirik adabiyotshunos va musiqa ilmi bilimdoni Abdurauf Fitrat o'zining "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" risolasida quyidagicha ma'lumot beradi: "Navoiyning o'zi musiqiy Xoja Yusuf Burhon ismli atoqli musiqiy olimdan o'rgandi. U musiqiyning nazariy-amaliy yo'llarini yaxshi bilar edi. Bobur Mirzo o'zining mashhur asarida Navoiyning asarlarini sanar ekan, "Yana ilmi musiqiyda yaxshi nimalar bog'labdir, yaxshi "naqsh"lari, yaxshi "peshrav"lari bordur", deb Navoiyning usta bir bastakor bo'lganini ko'rsatadur" [Фитрат 1993, 41].

XV asrning yirik olimlaridan biri Zaynulobiddin bin Mahmud al-Husayniyning "Musiqaning ilmiy va amaliy qonunlari" asarida kuyning tuzilishi, musiqa tovushlari tinglovchida turli kayfiyatlarni hosil qilish imkoniyatlari va inson hissiyotlariga ta'sir etishi haqida ko'pgina ilmiy xulosalarni keltiradi [Хамидов 1996, 74]. Muallif maqom musiqasi tinglovchiga kuchli emotsional-psixologik ta'sir ko'rsatishi mumkinligini ta'kidlab, milliy musiqaning kommunikativ hamda tarbiyaviy ta'sir kuchiga yuksak baho beradi.

XV asrda yashab ijod etgan Muhammad Nishopuriy o'zining "Musiqa ilmi haqida kitob" asarida cholg'u kuylari va qo'shiq ijrochiligidagi "tinglovchi-ijrochi" munosabatlari, musiqiy tovushlarning nazariy jihatdan talqini, xalq musiqasi ohanglarini tinglash orqali hosil bo'ladigan milliy musiqiy tasavvurlar, maqom musiqasining inson ruhiyatini tinchlantiruvchi, muvozanatga keltiruvchi psixologik xususiyatlari yuzasidan qimmatli fikrlarni ilgari surgan.

Bundan tashqari, XVI-XIX asrlarda Markaziy Osiyo hududlarida musiqa ilmi va amaliyotiga bag'ishlangan Boqiy Noiniyning "Zamzamai vahdat", G'iyosiddin Rampurining "Musiqa haqidagi lug'at"i, Vojid Alixonning "Matla' al-ulum va majma' al-funun" risolalari yaratildi. Mavlono Najmiddin Gavhariy Kavkabi Buxoriyning "Musiqa haqida risola" va "O'n ikki maqom haqida risola" asarlarida milliy musiqa orqali insonlarni kamolotga yetaklash, ayniqsa, maqomlar va ularning emotsional-psixologik ta'sir imkoniyatlari, turli kayfiyat va xarakterdagi musiqa asarlarini tinglash natijasida tinglovchida vujudga keladigan MMTlar, tinglovchi bilan ijrochi munosabatlari haqida qimmatli fikrlarni keltiradi.

Shuningdek, Najmiddin Kavkabi o'z asarlarida Xo'ja Hasan Nisoriyning "Sevishganlar zikri", Darvishali Changiy Buxoriyning "Musiqa haqida risola", Sommirzo Safaviyning "Somiylar to'xtashi", Xo'ja Sayfiddin G'aznaviyning "O'n ikki maqom haqida risola", Muhammad Yazdiyning "Musiqa usullari haqida risola", Alirizo Koiniy Birjandiyning "Ovoz va zikr odobi", Amirxon Kavkabi Gurjiyning "Musiqa haqida risola", Xojakalon Xurosoniyning "Musiqa haqida risola", bundan tashqari noma'lum muallifning "Musiqa haqida manzuma", "Musiqa usullari ilmi haqida risola" singari ko'pgina asarlarni tahlil qiladi [Кавкабий 1985, 75].

Kavkabi Buxoriyning ko'rsatishicha, yuqorida keltirilgan barcha risolalarda mualliflar milliy musiqaning tinglovchiga ijobiy ta'sir quvvatini ta'kidlab o'tganlar.

Milliy musiqa tinglovchilarda milliy musiqiy tasavvurlarni

hosil qilish xususiyatlari bo'yicha uch turga bo'linadi:

1. *Alhoni jirmiy* – to'liq kuy, ya'ni musiqa tovushi (nag'ma), doira usuli (ritm) va she'r matni qo'shilgan musiqa asari, bu vokal musiqadir.

2. *Alhoni basitiy* – oddiy kuy, ya'ni, cholg'u kuylar yoki she'rni o'lchovga solib o'qish.

3. *Alhoni hattiy* – cheklangan kuy, ya'ni, doira usuli va she'rning musiqasiz ko'rinishi.

Ushbu tasnifda musiqa ijrosi bilan birgalikda badiiy o'qish usullari ham kiritilgan bo'lib, musiqa asarlarining turli ijtimoiy guruhlariga mansub tinglovchilarga emotsional ta'sir ko'rsatishi nazarda tutilgan [Ражабов 1963, 111].

Mazkur asarlar XVI-XVII asrlarda yaratilgan bo'lib, ularda Sharq musiqa ilmi va amaliyotining musiqa asari tuzilishi, uning ma'lum tinglovchilar guruhiga yo'naltirilgani, uning emotsional-estetik xususiyatlari, ijtimoiy turmushdagi o'rni hamda tinglash orqali shakllanadigan tasavvurlar mavjud ilmiy bilimlar doirasida tahliliy bayon qilingan.

Maqomlarning inson ruhiyatiga ta'siri

Sharq olimlarining musiqa haqidagi risolalarida asosan maqomlar musiqasi tadqiq va tahlil etilgan. Chunki, mumtoz musiqa namunalari o'zining chuqur falsafiy mazmuni, inson ruhiyatini ifodalash imkoniyati kengligi bilan boqiylikka daxldordir. Ushbu asarlarni tinglash jarayonida inson ruhiyatida kechadigan ijobiy o'zgarishlar, iyerarxik tarzda tarkib topadigan ijtimoiy-estetik tasavvurlar, shaxslararo munosabat sub'yektlari sifatidagi ijrochi va tinglovchi munosabatlari mualliflarning diqqat markazida turgan.

Musiqiy tasavvurlarning imkoniyatlari haqida mulohaza yuritgan Shayx Sa'diy yoqimli kuylarni eshitish insonni jaholatdan qutqarishi va uning insoniy hissini kuchaytirishi mumkinligini aytadi [Ражабов 1963, 100].

“Davlat arbobi va sarkarda bo'lgan Muhammad Rahimxon Feruz ayni mahalda iste'dodli shoir, zukko musiqashunos, mohir sozanda, fan va madaniyat, adabiyotu san'atning homiysi ham edi. U soz chalish bilan birga Xorazmning mashhur olti yarim maqomini takomillashtirishga rahbarlik qildi, musiqa tarixi va nazariyasiga oid risolalar yaratilishiga sababchi bo'ldi” [Хамидов 1996, 102].

U milliy musiqa asarlarining insonlarda vatanparvarlik, mehr-oqibat, imyon-e'tiqod kabi ijtimoiy-axloqiy sifatlarni tarkib toptirishdagi muhim rolini chuqur his etgan holda musiqaning ta'sir

imkoniyatlariga katta ahamiyat qaratgan.

O'zbek adabiyotining buyuk adibi Abdulla Qodiriy mohir ijodkor sifatida san'atning, xususan, musiqaning inson ruhiyatiga, irodasiga, kayfiyatiga ko'rsatadigan emotsional-psixologik ta'siri va uning yordamida hosil bo'ladigan milliy musiqiy tasavvur qudratini o'z asarlarida bir necha bor qayd etadi. Masalan, "O'tkan kunlar" romanining "Navo kuyi" bobida Otabekning musiqa tinglayotgan holati shunday tasvirlanadi: *"Kuy boshlanishi bilanoq uning vujudi zirr etib ketgandek bo'lib ..., ixtiyorsiz ravishda dutorning munglik tovshiga berildi. Dutor tovshi qandaydir o'zining bir hasratini so'zlagandek, hikoya qilgandek bo'lib eshitar edi... Dutor quruqqina yig'lamas edi, balki butun koinotni zir ettirib va xasta yuraklarni dir silkitib yig'lar edi... Otabek ortiq chidab turolmadi-da, ro'ymoli bilan ko'zini yashirib, yig'lamoqqa kirishdi... Ul ko'z yoshlarini to'xtatmoqchi bo'lar edi. Biroq hozirgi ixtiyor o'zida emas edi – hamma ixtiyor dutorning hazin "Navo"sida, toqatsiz yig'isida edi"* [Қодиров 2002, 71].

Ushbu tasvirlar yordamida yozuvchi musiqiy ohanglar, cholg'u sozlaridan taraladigan tovushlarni idrok etish natijasida shakllanadigan MMTlar yuksak hissiy qudratga ega ekanligini, emotsional-psixologik va ijtimoiy-estetik ta'sir kuchini yorqin tasvirlay olgan.

Musiqashunos olim I.Rajabovning ta'kidlashicha, "Maqomlarning kishi ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatish xususiyatini al-Forobiy, Ibn Sino, Safiuddin Abdulmo'min, ash-Sheroziy, Abdurahmon Jomiy va keyingi davr (XVI-XVII asr)larda yashagan musiqa olimlari qayta-qayta uqtirib o'tganlar. Masalan, *Ushshoq, Buslik, Navo* maqomlari va *Mohur, Nihovand* sho'balari shaxsga shijoat va jasorat bag'ishlaydi. *Rost, Iroq, Isfahon* maqomlari va ovozlardan *Navro'z, Gardoniyya*, sho'balardan *Panjgoh* va *Zovuliy* nozik, yoqimli maqom yo'llari hisoblanib ular insonga xushchaqchaq kayfiyat bag'ishlaydi. *Buzurg, Zirafkand, Rahoviy, Zangula* maqomlari, *Gavasht* va *Shahnoz* ovozlari, *Hisor, Humoyun, Mubarca', Rakk, Sabo, Bastai Nigor, Navro'zi arab, Ro'yi Iroq* sho'balari g'amginlik, ruhiy horg'inlik, alamni ifoda etadi. Maqomlardan *Hijoz, Husayniy*, ovozlardan *Moya, Salmak*, sho'balardan *Nuhuft, Navro'zi Bayotiy, Dugoh, Uzzol, Avj, Javziy, Nayrez* kabilar eshituvchida ham quvonch, ham qayg'u kayfiyatini qo'zg'atadi" [Ражабов 1963, 96].

Maqomlarning emotsional-psixologik va ijtimoiy-estetik xususiyatlarini chuqur tahlil qilgan holda musiqashunoslar asarlarni tinglovchilarning emotsional-psixik holatlariga mos tanlashga, shuningdek, adekvat tasavvurlar hosil qilish orqali insonlarning

emotsional holatlarini yo'naltirib shaxslararo munosabatlarda ijtimoiy uyg'unlikni, hamjihatlikni qaror toptirishga harakat qilganlar.

Markaziy Osiyo mutafakkirlari musiqa, ayniqsa, milliy musiqaning tinglovchi (shaxs) ongiga kuchli ta'sir ko'rsatishini anglagan holda psixologik xususiyatlarini ilmiy asarlarida tavsiflashgan. Jumladan, musiqaning kishi kayfiyatiga kuchli ta'sir etishi, turli assotsiativ xotira materiallarini qayta yodga solishi, o'yantirishi va unda optimistik kayfiyatni hosil qilish imkoniyati mavjudligi uqtirilgan.

Abu Nasr Forobiy ijrochilarga tinglovchi imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda repertuarini tuzishlari, shunda musiqaning hissiy ta'sir imkoniyatlari to'la o'z tasarrufini topishini ta'kidlagan. Bu esa zamonaviy musiqa amaliyotida zarur shartlardan hisoblanadi.

Kaykovus "Qobusnoma" asarida mas'uliyatni ijrochiga yuklaydi va ijro repertuarini tinglovchi ehtiyoji hamda uning emotsional holatidan kelib chiqqan holda tuzishni taklif etadi. Faxriddin ar-Roziy o'z ilmiy asarlarida musiqaning nazariy jihatlarini tahlili asosida fikr bildirib, musiqiy tovushlarning tinglovchilarga psixologik ta'sir imkoniyatlari borasida o'z mulohazalarini bayon etgan. Abdurahmon Jomiy musiqaning inson kayfiyatiga kuchli ta'sir xususiyatlari borasida fikr bildirib, uni 4 yo'nalishda aks ettirgan.

O'rta asr musiqashunoslari o'z ilmiy asarlarida tabiiy va aniq fanlar barobarida musiqaning inson tarbiyasiga, uning xatti-harakatlari va xulq-atvoriga kuchli ta'sir ko'rsatish quvvati mavjudligini, ko'p hollarda musiqa ong osti darajasida ta'sir ko'rsatib, uning samarasi keyinchalik namoyon bo'lishi borasida qimmatli ilmiy mulohazalarni ilgari surganlar.

G'arb olimlari musiqa haqida

Bu yo'nalishda g'arb musiqa ilmida ham ko'plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Musiqiy tasavvurlar bilan bog'liq psixologik tadqiqotlar tarixiga nazar tashlaganimizda, bu yo'nalishdagi dastlabki ilmiy izlanishlar XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan. Jumladan, chet el olimlaridan K.Shtumpf va F.Brentanolarning musiqiy tovush balandligining ikki jabhaviyligi nazariyasi, O.Abraxamning ko'p ovozli musiqa haqida tasavvurlar, K.Sishorning musiqiy qobiliyatlar diagnostikasi, G.Gelmgoltsning musiqiy tovushni idrok qilishning rezonans nazariyasi, G.Bekeshining musiqiy tovush to'lqini nazariyasi, D.Normanning musiqiy tovush yangrashida davriylik nazariyasi, E.Skuchikning tovush

balandligi haqida tasavvurlar shakllanishi xususiyatlari, V.Kyoler, R.Xyussonlarning vokal imkoniyatlar hamda eshitish qobiliyatining o'zaro munosabati, R.Vudvortsning tovush to'loqinining musiqiy-nazariy xususiyatlari singari mavzularda musiqiy-psixologik tadqiqotlari mavjud.

Musiqaning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari qamrab olingan tadqiqotlarda musiqa va tinglovchi, ya'ni kommunikator va resepiyent, idrok genezisi va dinamikasi, musiqiy mazmunni anglashda shaxs ustanovkasining roli, idrok jarayonida yosh va turar joy xususiyatlari, musiqiy qobiliyatlar ontogenezi va rivojlanishi, turli ijtimoiy qatlamlarga mansub individlarning idroki va boshqa muammolar qamrab olingan.

Jumladan, A.L.Gotsdinerning musiqani idrok qilish genezisi, V.V.Medushevskiyning musiqaning ma'naviy hayotni aks ettirishdagi o'rni, A.N.Soxorning musiqada sotsiologiya va estetika masalalari, E.V.Nazaykinskiy va L.M.Kadsinning asar mazmunini anglashda musiqiy tovush xususiyatlari, V.I.Petrushinning turli ijtimoiy qatlamlarga mansub oilalardagi bolalarning musiqiy idroki, K.V.Tarasovanning maktabgacha yoshdagi bolalarda musiqani idrok qilishning shakllanishi va shunga o'xshash boshqa tadqiqotlarni sanab o'tish joiz. Mazkur tadqiqotlar o'zining ko'lami va yo'nalishi jihatidan ijtimoiy psixologiya va musiqa psixologiyasida individda musiqiy tovushlarga oid tasavvurlar shakllanishi mexanizmlari va qonuniyatlarini anglashga yordam berdi (Бахриев 2004, 25).

Yurtimizda o'quvchilarning ilmiy va badiiy tasavvurlarini shakllantirishda faoliyatning roli (R.Gaynutdinov, I.Miroshnik, A.Rasulov, V.Xalilov), oilaviy munosabatlarning bolalarga ta'siri va shu orqali shakllanadigan tasavvurlar (Sh.Jo'rayeva, V.Karimova, Sh.Otajonova, N.Salayeva, R.Samarov, N.Sog'inov, M.Utepbbergenov), bolalarga differensial yondashuv (T.Abayeva) kabi ishlar mavjud.

"Moddiy tovush ob'yekti musiqa asarini idrok qilishning dastlabki bosqichi bo'lib, musiqiy mazmunni anglash emotsional va intellektual faoliyatlar bilan hamkorlikda kuzatiladi" [Очеретовская 1964, 95].

Tasavvurlar orqali inson faqatgina uning mohiyatini anglab qolmasdan, balki muallifning asarda aks ettirgan ijtimoiy tajribasini ong'dagi turli assotsiativ bog'lanishlar natijasida o'z shaxsiy tajribasi bilan birlashtiradi. Ayniqsa, "Tinglash orqali estetik kechinmalar namoyon bo'lishida inson shaxsi, uning ijtimoiy kelib chiqishi, milliy va individual xususiyatlari ifodalanadi" [Разумный 1961, 33].

Musiqiy tasavvurlar shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi turli

ijtimoiy-psixologik omillarni o'rgangan tadqiqotchilar o'zlarining ilmiy qarash va xulosalarini bayon qiladi. Jumladan, A.N.Soxorning e'tirof etishicha, musiqiy tasavvurlar shakllanishi jarayoni o'zida ham subyekt, ham obyekt bilan aloqadorligini namoyon etadi. Ya'ni, obyektiv borliqning subyektiv obrazini yaratadi. Tasavvurlar shakllanishi jarayoni, birinchidan, jamiyat bilan tinglovchi mansub bo'lgan ijtimoiy guruhning tipi va holatiga; ikkinchidan, shaxsning ijtimoiy-psixologik belgilari, faoliyat turi, qiziqishlari, dunyoqarashi, didi va musiqiy idrokiga bog'liqdir. Hatto ma'lum musiqa asari yuzasidan jamiyatda reklama-targ'ibot ham musiqiy tasavvurlar shakllanishiga bevosita ta'sir etishi mumkin.

A.L.Gotsdiner talqiniga ko'ra musiqiy tasavvurlar shakllanishi determinantlari sifatida 3 ta omilni ko'rsatish mumkin:

- a) musiqaga nisbatan tabiiy senzitivlik;
- b) individning "musiqiy biografiya"sini va musiqiy tajribasini shakllantiradigan ijtimoiy sharoitlar;
- c) umumiy va musiqiy rivojlanish darajasi [Готсдинер 1989, 21].

Yuqoridagilarning barchasi shaxsning individual xususiyatlari orqali perseptiv jarayonlarning sifat mazmuni bilan bog'liqdir. Tadqiqotchi musiqiy muloqot (musiqani ijro etish va tinglash, ya'ni, kommunikator-resepiyent)ning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini tahlil qilib, musiqa asarining yaratilishi, ijrosi va tinglovchida ma'lum tasavvurlar shakllanishini quyidagicha ifodalaydi: ijodkor → muloqot vositasi (musiqa asari) → ijrochi → tinglovchi.

A.Gotsdiner musiqaning emotsional-psixologik yo'naltiruvchi salohiyati, ya'ni, bevosita ta'sir etish orqali faollik kuchayishi va idrok etish yordamida egallangan musiqiy tasavvurlarning shaxs ma'naviy olamiga uzluksiz ta'sir etishi mumkinligini ta'kidlaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda musiqiy tasavvurlar shakllanishi jarayonini o'rgangan K.Tarasova uni ikki darajada, ya'ni, musiqa asarining mazmundor intonatsiyasini badiiy obrazning musiqiy tovushlarda ifodalanishi va bolaning shaxsiy, ijtimoiy-madaniy tajribasi bilan tavsiflanadigan idrokni tahlil qiladi hamda respondentlarda musiqiy tasavvurlar shakllanishining bosqichlari sifatida quyidagilarni belgilaydi:

1. Musiqa asarini shaxs kayfiyatiga qarab emotsional sur'atda taqqoslash.

2. Emotsional mazmun dinamikasi nuqtai nazaridan musiqiy jarayonni tahlil qilish [Штейнпресс 1959, 91].

K.Tarasovaning fikricha, badiiy obrazlar mavhum tafakkurga

xos psixologik xususiyatlarga ega. Badiiy obraz idrok etuvchining ongida tasavvurlar shaklidagi ma'lum assotsiatsiyalarni hosil qiladi, natijada obraz individual mazmun kasb etadi. Musiqiy badiiy obrazlarning mavhumligi natijasida idrok xususiyatlari yanada yorqin namoyon bo'ladi va ijodiy xususiyat kasb etadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar idrokida asosan emotsionallik ustunlikka ega. K.V.Tarasova musiqiy tasavvurlar shakllanishi kichik yoshdagi maktab davriga to'g'ri kelishini tasdiqlaydi. Biroq musiqiy tasavvurlar tarkib topish jarayoni keyingi yosh davrlarida ham davom etadi.

Ikkinchi bosqich esa interpretatsiya, ya'ni tinglab idrok etilgan musiqa asarlarini tasavvurlar asosida talqin etish, tahliliy baholash imkoniyati bo'lib, tadqiqotchi tasavvurlarning asosiy, hal qiluvchi ahamiyatini shu bosqichda ifodalaydi va bu bosqich asar muallifi, ijrochi hamda zamondosh tinglovchilar singari ijtimoiy munosabatlar subyektlari pozitsiyasida amalga oshirilishini uqtiradi. Bundan tashqari, u turli janr va yo'nalishdagi musiqa asarlarini tinglash orqali shaxs va turli ijtimoiy guruhlar ongida shakllanadigan tasavvurlarning uch ko'rinishini hamda ularning bir-biriga bog'liqligi yo'nalishlarini ko'rsatib beradi. Ushbu tasnif asarlardagi intellektual va emotsional xususiyatlarning shaxs ongida reallashuvi va baholash tizimida namoyon bo'lishi bilan xarakterlanadi.

"Erkin uslubdagi asarlarni tinglash orqali hosil bo'ladigan tasavvurlar bog'liqligi yo'nalishi: → intellektual → emotsional → assotsiativ (taqqoslash);

Vokal musiqa hamda teleradio musiqasini tinglaganda:

intellektual → assotsiativ → emotsional" [Кадцин 1990, 16].

L.M.Kadsin tasavvurlar bog'liqligini aks ettirishda asar orqali tasvirlanadigan badiiy mazmunning shaxs ongida aks etish xususiyatlariga e'tibor qaratadi. Chunonchi, tasavvurlar shakllanishi jarayonida emotsional-psixologik kechinmalar musiqa asarining sub'yektiv va ijtimoiy mazmunini anglashning muhim sharti hamda shaxs faolligining yuqori darajasi bilan tavsiflanishi hamda asardagi voqealarda ishtirok etishga (ruhiy va hissiy jihatdan), kechinmalarda hamfikir bo'lishga da'vat qilishi, tinglovchini bastakor bilan ijrochining ijodiy faolligi darajasiga yaqinlashtirishi mumkin.

F.Nevinskiy va V.I.Petrushinlarning fikricha, o'smirlarda musiqa tinglash orqali shakllanadigan tasavvurlar, ularning shaxsiy va individual yo'nalganlik xususiyatlarini aks ettiradi [Гордеева 1993, 9]. Biroq musiqiy tasavvurlar shakllanishida ijtimoiy omillarning ahamiyatini nazarda tutish lozim. Chunki, bolalar va o'smirlarda shakllanadigan musiqiy tasavvurlar asosan ma'lum

musiqa haqidagi ijtimoiy tasavvurlar negizida vujudga keladi.

Musiqiy tasavvurlar shakllanishi, yo'nalganligi, ko'lami va sifatiga ma'lum musiqaga nisbatan moyillik, his-tuyg'ular mutanosibligi ijobiy ta'sir etadi hamda «tinglovchi qachonki musiqa asari mazmuniga xos adekvat kechinmalarni to'liq his etsa va bu ijro uni chuqur qamrab olsa, ideal holat yuz beradi. Bunday holatni amerikalik psixolog A.Maslou "kechinmalar cho'qqisi", L.S.Vigotskiy esa "san'at mo'jizasi" deb ataydi. Chuqur anglangan holda idrok qilish orqali ongosti kechinmalari natijasida katarsis (gr. *catharsis*–ichki g'uborlardan forig' bo'lish) yuz beradi, natijada tinglovchi Arastu so'zlari bilan aytganda "ma'naviy rohatlanish bilan bog'liq yengillashish"ni his qiladi [Давыдов 1983, 145].

Inson "kechinmalar cho'qqisi"ga chiqqanda, A.Maslou fikricha, "o'zining koinot bilan qo'shilib ketishini" his qiladi. U o'z "Men"i sarhadlaridan chiqib, olamni o'zining tabiiy davomi sifatida anglaydi [Петрушин 1997, 180]. Shaxsdagi ushbu emotsional-psixik holatni musiqiy tasavvurlar shakllanishining yuqori ko'rinishi sifatida baholash mumkin.

Musiqiy tasavvurlar shakllanishi iyerarxiyasida musiqa yangrash hamisha tashqi omil sifatida kechadi va shaxsda adekvat emotsional-psixik holatlarni hosil qilishi natijasida mazmunli axborotga aylanadi. Biroq, yaratilgan musiqiy asar moddiy borliq emas, balki muallifning tinglovchi bilan o'ziga xos ijtimoiy muloqoti, uning fikri va hissiyotlariga ta'sir etishning o'ziga xos psixologik usulidir.

I.Rajabov maqomlar musiqasining inson ruhiy olamiga ta'sir imkoniyatlari beqiyos ekanligini ta'kidlab, maqom sho'balarining inson psixologiyasiga ta'sir quvvatini aniq misollar orqali keltirgan.

MMTlarni shakllantirish uchun hozirgi davrda yuqori badiiy saviyadagi musiqiy asarlar yaratish bilan bir qatorda xalq musiqa merosi namunalaridan foydalanish natijasida o'quvchi shaxsida muayyan ijtimoiy ustanovkani hosil qilish talab etiladi. Demak, musiqiy tasavvur tushunchasi ma'no-mazmunida shaxsda xalq musiqasi haqida oldingi tajriba negizida shakllanadigan ko'rgazmali obrazlar tushuniladi.

Milliy musiqiy tasavvurlar tizimi, bizningcha, o'quvchi shaxsining xalq musiqasi haqidagi umumiy tasavvurlari, mumtoz musiqa haqidagi tasavvurlar, xalq musiqasining ommaviy janrlari (musiqa folklori), milliy cholg'u sozlari to'g'risidagi tasavvurlar, xalq cholg'u kuyi, qo'shiqlarining rivojlanish qonuniyatlari, asarlarning tuzilishi yuzasidan tasavvurlar, milliy musiqiy bezaklar va milliy zarb-usullar haqidagi tasavvurlar majmuasidan tashkil

topadi. Ushbu tizimning har bir sohasi (psixologik, ijtimoiy-psixologik, musiqiy-psixologik, ijtimoiy, estetik, badiiy, tarbiyaviy, yo'naltiruvchi va h.k.) o'zaro uzviy bog'liqdir. Muxtasar aytganda, musiqiy tasavvurlar shaxsning milliy musiqaga nisbatan munosabatini belgilaydi.

Xalq musiqasidagi o'ziga xos tarbiyaviy xususiyatlarning yakka shaxs, guruh, etnos yoki alohida olingan millat ongida emotsional-psixologik kechinma sifatida aks etadigan ko'rgazmali obrazlari majmuasi tarzida ta'riflash mumkin. Xalq musiqa asarlarining o'ziga xos xususiyatlari: milliy usul-ritmlar, milliy musiqiy bezaklar, milliy cholg'u sozlarining tovush hosil qilish va tembr xususiyatlari orqali milliy xislatlarni ifodalashi, ijroviy imkoniyatlari, asarlar shaklining tuzilishi, milliy kuy rivojlanishi qonuniyatlarining shaxs ongidagi in'ikosi, qo'shiqlar matni vositasida milliy-etnik, turmush tarzi va milliy qadriyatlarining yorqin tasvirlanishida namoyon bo'ladi. Bular quyidagi ijtimoiy-psixologik omillar va mezonlar orqali namoyon etiladi: kichik maktab yoshidagi bolalar va o'smirlarning milliy musiqaga nisbatan munosabatlariga; xalq musiqasi targ'ibotiga; ijtimoiy muhitda xalq musiqasiga nisbatan mavjud munosabatlarga; ma'naviy tarbiya mazmuni va saviyasiga; oilaning ijtimoiy nufuzi va xalq musiqasiga nisbatan munosabatlar me'yoriga bog'liqdir. Shubhasiz, yuqoridagi omillar yaxlit tarzda turli yosh, individual va hududiy xususiyatlarga mansub tinglovchilarning musiqiy idroki sifatiga ta'sir etib, ularda MMTlar shakllanishida asosiy ahamiyat kasb etadi.

MMTlar shaxsning musiqiy tajribasi va milliy musiqaga nisbatan mavjud munosabatlari mahsulidir. Ular milliy musiqaga nisbatan jamiyatda mavjud turli ijtimoiy qarashlar, fikrlar va baholarning shaxs ongida aks ettirilishini ta'minlaydi. Yakka shaxs, ijtimoiy guruh va millat ongida milliy musiqiy tasavvurlar shakllanishi ularda milliy g'urur, milliy ong va milliy o'zlikni anglash xususiyatlarini qaror toptirishga ko'maklashadi.

MMTlarning bilish funksiyasida – shaxs ongida turli darajada shakllanadigan har qanday musiqiy tasavvur asar mazmunini tushunishga qaratiladi. Ikkinchi funksiyasi tahlil etish bo'lib, idrok etilgan milliy musiqa namunalari appersepsiya yordamida ongda ma'lum asarlar obrazlariga taqqoslanadi va unda ifodalangan badiiy voqelikka ijtimoiy baho beriladi. Baholash subyektiv qarashlar asosida amalga oshirilsa-da, unda ijtimoiy munosabat me'yori aks etadi. Uchinchi funksiyasi yo'naltirish bo'lib, asarda shaxsiy mazmunni anglashga ko'maklashadi hamda ijtimoiy faoliyatda

ma'lum rol o'ynaydi.

MMTLar yosh xususiyatlari, musiqiy bilim va tajriba bilan bog'liq bo'lgani uchun turli yosh guruhlarida tasavvurlarning shakllanishi muayyan tafovutli xususiyatlarga ega. Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda musiqiy mazmunni tushunish hamda tasavvurlar shakllanishi aksariyat hollarda emotsionallik asosida, ya'ni, asarning hissiy ta'siriga berilish, hissiy idrok etish orqali unga baho berish tarzida amalga oshiriladi.

MMTLar quyidagi bosqichlarda shakllanadi:

a) milliy musiqa asarini emotsional idrok etish va asar xarakteriga asoslangan holda shaxs uchun muhim tomonlari tanlanishi;

b) asarning ichki tuzilishi, badiiy va ijtimoiy mazmun-mohiyati bo'yicha ma'lumotlar to'planishi;

c) asarning shaxs ongida ideal sifatida qabul qilingan asarlar bilan taqqoslanishi va ahamiyati pasayganlarining xotiradan chiqarilishi orqali asar obraziga adekvat tarzda kechinmalar paydo bo'lishi;

d) ijtimoiy baho, sub'yektiv munosabatlar va appersepsiyaga asoslangan holda MMTlarning yaxlit holda ongda mujassamlashuvi.

O'zbek milliy musiqasi haqidagi tasavvurlar, turli yosh guruhlaridagi shaxslarda individual, hududiy xususiyatlar, milliy qadriyatlar, an'analar, urf-odatlar, munosabatlar ta'siri ostida shakllanadi. Chunki, MMTlar ko'lami va sifati shaxsning milliy musiqa bo'yicha bilimlari, ushbu musiqa nisbatan munosabati darajasi va faoliyat motivlarining me'yorini aks ettiradi. Bundan tashqari, badiiy saviyasidan qat'i nazar, keng targ'ib qilinadigan har qanday janr, shakl va uslubdagi musiqa asarlari turli tinglovchilar guruhlarida ijobiy tasavvurlar uyg'otishi mumkin.

Xulosa

O'quvchi shaxsining xalq musiqasi to'g'risidagi bilimlari, uning ijtimoiy voqelik in'ikosi sifatidagi mazmuni va maqsadini tushuntirib bera olish imkoniyati unda mavjud baholash xususiyatining muhim ko'rsatkichidir. Ijtimoiy ustanovka darajasi MMTlar shakllanishi ko'lami va sifatini belgilovchi muhim omillardan biridir. Shu jihatdan, qiziqish va ehtiyojlar asosida ma'lum musiqa nisbatan munosabat hosil bo'lishi - tasavvurlar tarkib topishi motivlari sifatida namoyon bo'lishi mumkin. MMTlarni baholashda shaxsning yosh xususiyatlari, qiziqishlari, layoqatlari, ijtimoiy kelib chiqishi va hududiy xislatlari e'tiborga olinishi

maqsadga muvofiq.

Milliy musiqiy tasavvurlar shakllanishida dastlab milliy musiqa namunalarining ijro xususiyati anglanadi. Chunki, asar xususiyatini anglash orqali uning dastlabki tasviriy va ifodaviy xususiyatlari shaxs ongida aks etadi hamda keyingi bosqichga axborotlar to'plash uchun qulay psixologik vaziyat yaratiladi. Xarakter emotsionallik bilan bog'liq bo'lgani sababli turli emotsional-psixologik holatlarni ifodalovchi kayfiyatlar (quvnoq, g'amgin, tantanali, yengil, mungli, ko'tarinki, sho'x va h.k.) asarning badiiy va ijtimoiy xususiyatini belgilovchi omillar sifatida vujudga kelishi mumkin. Masalan, o'quvchilarning tinglayotgan asarlariga dastlabki soniyalardayoq munosabat bildirishlari (musiqa yoqdi yoki yoqmad) ham tasavvurlar asosidagi asar xususiyati bilan bog'liq baholash tizimi hisoblanadi.

Keyingi bosqichda asarning ichki tuzilishi, shakli, musiqiy obrazlarning rivojlanish jarayoni, badiiy-musiqiy va ma'naviy-ijtimoiy mazmuni haqida ma'lumotlar yig'iladi. Uchinchi bosqichda asar ongda ideal nusxa (asar)lar bilan taqqoslanib, saralanadi va asar obraziga adekvat kechinmalar paydo bo'ladi. Nihoyat, oxirgi bosqichda ushbu asar yuzasidan ijtimoiy baho tizimi, musiqiy tajriba (appersepsiya) va sub'yektiv munosabatlar asosida yaxlit tasavvurlar shakllanadi.

Adabiyotlar

- Акбаров, И. А. 1997. *Музыка луғати*. Тошкент: Ўқитувчи.
- Бахриев, А. Р. 2004. *Ўқувчиларда миллий музика тасаввурларни шакллантиришининг ижтимоий-психологик хусусиятлари*. Психол. фан, ном. дисс... Тошкент.
- Гордеева, Т. О. 1993. *Особенности переживания подростков при восприятии музыки*. Автореферат кандидата психологических наук. Москва.
- Гоцдинер, А. Л. 1989. *Генезис и динамика формирования способности к восприятию музыки*. Автореферат диссертации доктора психологических наук. Москва.
- Йўлдошева, С. Ҳ. 1985. *Ўзбекистонда музика тарбияси ва таълимнинг ривожланиши*. Тошкент: Ўқитувчи.
- Кавкабий, Н. 1985. *Рисолаи музика: Рисола дар баёни Дувоздаҳмақом*. Тавҳезот ба қалами А.Ражабов. Душанбе: Ирфон.
- Кадсин, Л. М. 1990. *Музыкальное искусство и творчество слушателя*. Москва: Высшая школа.
- Каримова, В.М. 1994. *Ўзбек ёшларида оила тўғрисидаги ижтимоий тасаввурлар шаклланиши*. Психология фан. докт. дисс... Фарғона.
- Қодиров, У. Д. 2002. *Бадий ижодиётда ижтимоий-психологик ва этно-психологик муаммолар талқини (Абдулла Қодирий романлари асосида)*. Психол. фан, ном. дисс... Тошкент.
- Матёкубов, О. 1983. *Оғзаки аъёнадаги профессионал музика асослари*га кириш. Тошкент: Ўқитувчи.

- Очеретовская, Н. А. 1964. *Содержание и форма в музыке*. Киев: Музична Украина.
- Петрушин, В. И. 1997. *Музыкальная психология*. Москва: Гуманитарный издательский центр Влados.
- Проблемы музыкальной науки Узбекистана*. 1973. Ташкент: Фан.
- Психологический словарь*. 1983. Под редакцией В.В.Давидова, А. В. Запорожца, Б. Ф. Ломова. НИИ общей и педагогической психологии АПН Р. Москва: Педагогика.
- Ражабов, И. 1963. *Мақомлар масаласига доир*. Тошкент: Ўздавадабнашр.
- Разумный, В. А. 1961. *О хорошем художественном вкусе*. Москва: Госполитиздат.
- Рахимов, С. Р. 1979. *Психолого-педагогические взгляды Абу Али ибн Сина*. Ташкент: Укитувчи.
- Сайдов, А. 2002. “Муסיқа ўқитувчисининг маънавий маданияти ҳақида”. Республика илмий-амалий конференцияси материаллари, 95-100. Тошкент.
- Соғинов, Н. А. 2002. “Кадрлар тайёрлаш иккинчи босқичини амалга оширишда психодиагностика имкониятларидан фойдаланиш”. Республика илмий-амалий конференцияси материаллари, 26-30. Тошкент.
- Соломонова, Т. Е. 1981. *Ўзбек музыкаси тарихи*. Тошкент: Ўқитувчи.
- Тарасова, К. В. 1988. *Онтогенез музыкальных способностей*. НИИ дошкольного воспитания АПН Р. Москва: Педагогика.
- Фитрат, А. 1993. *Ўзбек классик муסיқаси ва унинг тарихи*. Тошкент: Фан.
- Хайруллаев, М. М. 1976. *Философия луғати*. Тошкент: Ўзбекистон.
- Ҳамидов, Ҳ. 1996. *Ўзбек анъанавий қўшиқчилик маданияти тарихи*. Тошкент: Ўқитувчи.
- Энциклопедический музыкальный словарь*. 1959. Составители Б. С. Штейнпресс и И. М. Ямпольский. Москва: Издательство БСЭ.

Ahmad Bahriev

(Tashkent, Uzbekistan)
arbahriyev@mail.ru

Psychological Features of the Formation of National Musical Representations in Educational Process

Abstract

National music is a powerful emotional and psychological tool, and the importance of socio-psychological factors in shaping adequate images through its perception is highlighted in the works of Central Asian thinkers. National musical imagination is the transformation of a musical work perceived by a listener as a representative of the nation into artistic information directly in the consciousness of a person. This scientific article highlights the widespread use of scientific ideas and considerations of

Central Asian thinkers on the possibilities of emotional and psychological effects of music in contemporary music education providing the effectiveness of teaching.

Key words: imagination, musical imagination, national musical imagination, listener taste, katarsis.

About the author: *Ahmad R. Bahriev* – Candidate of Psychological Sciences, Assistant Professor, Tashkent State Conservatory of Uzbekistan.

For citation: Bahriev, A. R. 2019. "Psychological Features of the Formation of National Musical Representations in Educational Process". *Uzbekistan: Language and Culture* 4: 80—100.

References

- Akbarov, I.A. 1997. *Musiqqa lugati*. Toshkent: Uqituvchi.
- Bahriev, A. R. 2004. *Uquvchilarda milliy musiqiy tasavvurlarni shakllantirishining izhtimoiy-psihologik hususiyatlari*. Psihol. fan, nom. diss... Toshkent.
- Gordeeva, T. O. 1993. *Osobennosti perezhivaniy podrostkov pri vospriyatii muziki*. Avtoreferat kandidata psixologicheskikh nauk. Moskva.
- Gotcdiner, A.L. 1989. *Genезis i dinamika formirovaniya sposobnosti k vospriyatiju muziki*. Avtoreferat dissertatsii doktora psixologicheskikh nauk. Moskva.
- Juldosheva S. H. 1985. *Uzbekistonda muzika tarbijasi va ta'limining rivozhlanishi*. Toshkent: Uqituvchi.
- Kavkabij, N. 1985. *Risolai musiqi: Risola dar bajoni Duvozdahmaqom*. Tavhezot ba qalami A.Razhabov. Dushanbe: Irfon.
- Kadsin, L. M. 1990. *Muzikal'noe iskusstvo i tvorchestvo slushatelja*. Moskva: Vysshaja shkola.
- Karimova, V. M. 1994. *Uzbek joshlarida oila tugrisidagi izhtimoiy tasavvurlar shakllanishi*. Psihologiya fan. dokt. diss... Fargona.
- Qodirov, U. D. 2002. *Badiij izhodijotda izhtimoiy-psihologik va jetnopsihologik muammolar talqini (Abdulla Qodirij romanlari asosida)*. Psihol. fan, nom. diss... Toshkent.
- Matjoqubov O. 1983. *Og'zaki an'anadagi professional muzika asoslariga kirish*. Toshkent: Uqituvchi.
- Ocheretovskaja, N. A. 1964. *Soderzhanie i forma v muzike*. Kiev: Muzichna Ukraina.
- Petrushin, V. I. 1997. *Muzikal'naja psixologiya*. Moskva: Gumanitarnij izdatel'skij centr Vados.
- Problemy muzikal'noj nauki Uzbekistana*. 1973. Tashkent: Fan.
- Psihologicheskij slovar'*. 1983. Pod redakciej V.V.Davidova, A.V.Zaporozhca, B.F.Lomova. NII obshej i pedagogicheskoy psixologii APN R. Moskva: Pedagogika.
- Razhabov, I. 1963. *Maqomlar masalasiga doir*. Toshkent: Uzdavabnashr.
- Razumnij, V. A. 1961. *O horoshem hudozhestvennom vkuse*. Moskva: Gospolitizdat.
- Rahimov, S. R. 1979. *Psihologo-pedagogicheskie vzglyadi Abu Ali ibn Sina*. Tashkent:

Ukituvchi.

- Saidov, A. 2002. *"Musiq uqituvchisining ma'navij madaniyati haqida"*. Respublika ilmiy-amaliy konferencijasi materiallari, 95-100. Toshkent.
- Soginov, N. A. 2002. *"Kadrlar tajjorlash ikkinchi bosqichini amalga oshirishda psihodiagnostika imkoniyatlaridan fojdanish"*. Respublika ilmiy-amaliy konferencijasi materiallari, 26-30. Toshkent.
- Solomonova, T. E. 1981. *Uzbek muzikasi tarihi*. Toshkent: Uqituvchi.
- Tarasova, K. V. 1988. *Ontogenez muzikal'nyh sposobnostej NII doshkol'nogo vospitaniya APN R*. Moskva: Pedagogika.
- Fitrat, A. 1993. *Uzbek klassik musiqasi va uning tarihi*. Toshkent: Fan.
- Hayrullaev, M. M. 1976. *Filosofiya lugati*. Toshkent: Uzbekiston.
- Hamidov, H. 1996. *Uzbek an'anaviy qushiqchilik madaniyati tarihi*. Toshkent: Uqituvchi.
- Jenciklopedicheskij muzikal'nij slovar'*. 1959. Sostaviteli B.S.Shtejnpress i I.M.Jampolskij. Moskva: Izdatelstvo BSJ.